
XOTIRA AZIZ, QADR MUQADDAS

Xotira va qadrlash – xalqimizning asriy qadriyatlarini, ulugʻ fazilatlaridan. Umr mazmunini fidoyilik bilan bezab, oʻziga xos namunali hayot yoʻlini yaratgan jonfidolarni eʼzozlash, oʻtganlarni xotirlab, ularning aziz nomlarini yod etish ham qadriyatlarimiz hisoblanadi

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 16 apreldagi 9 may- “Xotira va qadrlash” kuniga tayyorgarlik koʻrish va uni oʻtkazish chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi PQ-160-sonli qarori hamda Fargʻona viloyati hokimi tomonidan joriy yilning 26 fevral kuni tasdiqlangan chora-tadbirlar reja-jadvali ijrosini taʼminlash yuzasidan bugun Respublika Maʼnaviyat va maʼrifat markazi Toshloq tuman boʻlinmasi tashabbusi bilan tuman hokimligi hamda Oʻzbekiston mahallalari uyushmasi tuman boʻlimi hamkorlikda "Xonariq" mahallasida yashab oʻtgan Oʻzbekiston qahramoni Komiljon Mamajonovni nomini abadiylashtirish, uning ibratli hayot yoʻlini yosh avlodga naʼmuna qilib koʻrsatish maqsadida "Fidoyilik" mavzusida xotira tadbiri boʻlib oʻtdi.

Uchrashuvda qahramonimiz qishloq va mahallalarni obod qilish, yoshlarni vatanparvarlik va istiqloq gʻoyalari sadoqat ruhida tarbiyalash, qishloq xoʻjaligi sohasini malakali kadrlar bilan taʼminlash ishlarida tashabbus koʻrsatganligi eʼtirof etildi.

Komiljon ota Mamajonov 1989 yil “Oʻzbekistonda xizmat koʻrsatgan paxtakor” faxriy unvoni va 1995 yil 25 avgust kuni Prezident farmoni bilan “Oʻzbekiston qahramoni” unvoni bilan mukofotlangan. Mohir qishloq xoʻjaligi xodimi, kamtarin va mehnatkash inson Komiljon ota Mamajonovning xotirasi qalbimizda hamisha saqlanib qoladi.

2024-05-07 15:35:44